XO‘JA ABDU DARUN MAQBARASI: TARIXI, ME’MORCHILIGI VA ZIYORATGOH AHAMIYATI

Raximova Dilfuza Qodirjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo‘nalishi talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada Samarqand shahridagi eng qadimiy va tabarruk ziyogohlaridan biri — Xo‘ja Abdu Darun maqbarasining kelib chiqish tarixi, me’moriy tuzilishi hamda islom madaniyatida tutgan o‘rni yoritiladi. IX asrda yashab o‘tgan mashhur qazi Xo‘ja Abdu Said al-Bohiliy xotirasiga bag‘ishlangan ushbu majmuaning asrlar davomida qayta qurilishi, uning tarkibidagi xonaqoh, hovuz va masjidning o‘ziga xos me’moriy uslubi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xo‘ja Abdu Darun, Samarqand, maqbara, me’morchilik, ziyoratgoh, IX asr, xonaqoh, koshinpazlik, islom merosi, tarixiy obida.



Xo‘ja Abdu Darun masjid ziyoratgohi Samarqand shahar Sadriddin Ayniy ko‘chasida joylashgan. Ziyoratgoh qadimiy maqbara, chillaxona, xonaqoh va hujralardan iborat obidadir.

Maqbara xalq orasida Xo‘ja Abdu Darun nomi bilan mashhur ash-shesmi Muiziddin bo‘lgan shaxsning qabri ustiga Sulton Sanjar Moziy tomonidan (taxminan XII asrda) qurdirilgan. Keyin Mirzo Ulug‘bek uni qaytadan koshinlik imorat tarzida bino qildi va xonaqoh hujralar soldirdi.

Xo‘ja Abdu Darunning nasl-nasabi xususida tarixiy ikki asosiy manba — Abu Tohirxo‘janing "Samariya", Abulhakim Samarqandiyning "Qandiya" asarlarida kengroq ma’lumot berilgan.

Xo‘ja Abdu Darunning fazilatlari va nasl-nasabi xususida yagona fikr manbalarda yo‘q. Avalambor, qayd etmoq zarurki, bu zoti muazzamning maqbaralari Samarqandning qadimiy devori — Devori Qiyomatning ichkari (tojikcha - darun) tomonidan joylashgani uchun Abdu Darun laqabini olganlar.

Asosiy qism

Markazida eng yirik bino — xonaqoh (XV asr) ko‘zga tashlanadi. Uning peshtoqi,

gumbazi va devorining bezaklari Ulug‘bek davri me’morligi mahsuli ekanidan darak beradi. Xonaqohning ichida IX asrda yashagan avliyo, alloma Abdu Mo‘zidning qabri bor. Xo‘ja Abdu Darunning padari buzrukvorlari Xo‘ja Abdug‘odiz as-Said (Xo‘ja Abdu Berun) bo‘lib, Samarqandda hokimlik qilgan. Xo‘ja Abdu Darunni Xo‘ja-i Kunj deb ham ataganlar. Xo‘ja 247 hijriy yilning Zulqa’da oyida (mil. 861-yil may oyida) vafot etgan.

Abdu Darunning qabri atrofida turli binolar paydo bo‘lib, me’moriy ziyoratgohga aylangan. Ziyoratxona-jome-xonaxona masjid vazifasini o‘tagan. Ta’mirlash natijasida maqbara binosining dastlabki qiyofasi o‘zgarib ketgan. Hovli ortidagi sarhavuz chashma-buloq ustida bo‘lgani uchun ham uning suvi qishin-yozin bir xilda saqlangan, aholi orasida shifobaxsh hisoblangan.

Xo‘ja Abdu Darunning nasl-nasabiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu xususida turli taxminlar bor. Masalan, shulardan biri — "Samariya" asarida keltirilishicha: Xo‘ja Abdu Darunning asl ismi Muiziddin bo‘lib, Xo‘ja Muhammad Yaqubning farzandi, u esa Xo‘ja Abdi ibn Usmonning o‘g‘lidir.

"Qandiya" asari muallifi esa allomaning kelib chiqishini Payg‘ambarimizning qizi Ruqiya bilan bog‘laydilar. Ammo har ikki ma’lumot to‘g‘ri emas. Xo‘ja Abdu Darunning payg‘ambarimiz bilan irsiy tomondan aloqasi yo‘q. Chunki u zotning Ruqiya qizlari Usmonga nikohlachach, ulardan Abdulloh ismli farzand dunyoga keladi va bolaligidayoq vafot etadi; lekin Hazrat Usmonning boshqa xotinlaridan 16 nafar farzandi bo‘lgan, shularning birontasidan Xo‘ja Abdu Darunning nasl-nasabi tarqalishi mumkin. Bu ulug‘ zot Samarqandning ilk tasavvuf namoyandalaridan biri, olim va qozi bo‘lgan.



Olim sifatida Xo‘ja Abdu Darun qol bilan qol bilimlarini to‘plagan edi. Qol ilmi —

botiniy (ichki), xissiy ilmlar ya’ni tasavvuf ilmidir, qol ilmi — til bilan anglatib bo‘ladi.gan, isbotlash mumkin bo‘lgan zohiriy (tashqari) diniy, dunyoviy ilmlar, aniq fanlardir. Islomda shariat ilmi ham qol deb yuritiladi.

Qozi sifatida hazrati Abdu Darun misli ko‘rilmagan adolatli inson ekan. Bu jihatni "Samariya"da keltirilgan bir naql isbotlaydi: "O‘zining otasi bir voqea to‘g‘risida guvohlik bermoqchi bo‘lganda rad qildi va „Siz bizning kichiklik chog‘imizda podshohlik solig‘i berilmagan tokdan mehmonga uchun uzum uzib chiqargan edingiz, shuning uchun sizning to‘g‘riligingizga shubhamiz bor“ dedi".

Ul zotning obro‘yi, nufuzi nihoyatda yuksak bo‘lgan. Turli zamonlarda yashagan eng ulug‘vor insonlar ul zotga ixlos, e’tiqod qilganlar.

Qayd etish lozimki, o‘sha davrlarda ko‘plab mashhurlar vafot etganlaridan keyin o‘z bog‘larida dafn etish odat tusiga kirgan. Xo‘ja Abdu Darun ham o‘z bog‘iga ko‘milgan va hozirda taxminan 15 ta qabriston joylashgan.



Xulosa

Xo‘ja Abdu Darun maqbarasi majmuasi — IX asrda yashagan ma’rifatparvar va odil qozi Xo‘ja Abdu Darun xotirasini gavdalantiruvchi, Samarqandning boy tarixi hamda me’morchiligini o‘zida mujassam etgan tabarruk ziyoratgohdir. "Devori Qiyomat" devorining ichki tarafida joylashgani uchun ushbu nom bilan tanilgan majmua, XII asrda Sulton Sanjar va XV asrda Mirzo Ulug‘bek davrida qayta tiklanib, mukammal me’moriy qiyofaga ega bo‘lgan. Bugungi kunda xonaqoh, masjid, shifobaxsh sarhavuz va qabristonni o‘z ichiga olgan ushbu koshinpazlik obidasi nafaqat tarixiy meros, balki xalqimizning ma’naviy va e’tiqodiy qadriyatlar maskani sifatida yuksak qadrga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdidarun majmuasi“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (A-harfi). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.

2.Самарканд Справочник - путеводитель. Tashkent Uzbekistan 1967 — 82-bet.

3.Abu Tohirxo'ja. Samariya — 29-bet.

4.Qulmatov Sh, Berdimurodov A. Samarqand yodgorliklari. Самарканд: Имом Бухорий халкаро маркази, 2017 — 95-bet. ISBN 978-9943-4783-8-1.